

Immunoterapiyaga zamonaviy yondashish

2019-yil 6-may kuni O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va FA Immunologiya va genomika instituti tomonidan “Immunoterapiyaga zamonaviy yondashish” mavzusida Xalqaro ilmiy-amaliy seminar o'tkazildi. Unda respublikamizning ko'zga ko'ringan immunologiya sohasi vakillari, Rossiyaning yetakchi immunologlari va molekular allergologiya bo'yicha yetakchi mutaxassislari o'z ma'ruzalar bilan ishtirok etishdi.



Seminar ishida molekular allergologiya, allergik kasalliklar uchun target dori vositalarni ishlab chiqarish va immunoterapiyaning asoslari bo'yicha ko'plab masalalar ko'rib chiqildi. Jumladan, immun tizimining ko'plab patologik jarayonlarda faoliyati, ekzogen, endogen va kimyoviy jixatdan toza immunomodulyatorlardan klinik amaliyotda foydalanish kabi masalalar muhokama qilindi. Seminarda 450 ga yaqin amaliy shifokorlar, tibbiyat oliygochlarni o'qituvchilari, talabalari va ilmiy-tekshirish markazlarning mutaxassislari ishtirok etdi.